

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

AMALIY MATEMATIKA VA INFORMATIKA KAFEDRASI

Doniyorov G'iyosning

5480100 - Amaliy matematika va informatika ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

"OB'EKTGA MO'LJALLANGAN DASTURLASH
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUV-USLUBIY
KOMPYUTER DASTURINI YARATISH"
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Rahbar: **pedagogika fanlari nomzodi,**
 dotsent D.B.Abduraximov

Guliston – 2016

MUNDARIJA

Kirish

I bob. DASTURLASH TEXNOLOGIYASI VA UNING TARAQQIYOTINI ASOSIY BOSQICHLARI

1.1. Dasturlashning yangi texnologiyalari sifatida ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash texnologiyalaridan foydalanish

1.2. Ob'ekli algoritm

1.3. Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash. Ob'ektlarni aniqlash

II bob. O'QUV- USLUBIY KOMPYUTER DASTURINI YARATISHDA OB'EKTGA MO'LJALLANGAN DASTURLASH TILLARINING O'RNI

2.1. O'quv - uslubiy vositalarni tanlash va ularni hayotga tadbiqu.

2.2. Delphi muxitida dastur tuzish texnologiyasi.

2.3. O'quv- uslubiy kompyuter dasturini yaratish va undan foydalanish.

Xulosa va takliflar.....

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yilidanoq asrlarga arzigulik mazmun va samara kasb etadigan isloxotlar amalga oshirildi. "Ta'lim to'g'risidagi" qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da barkamol shaxs tarbiyasi davlat ahamiyatiga molik muxim masala ustivor yo'nalish sifatida belgilandi. Bu maqsadga erishishning samarali vositalaridan biri "o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etishdan" iboratdir.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga joriy etish yillarida respublikamiz ta'lim tizimida qator muxim o'zgarishlar yuz berdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'rsatib o'tilganidek, "ta'lim jarayoni barcha darajada kompyuterlashtiriladi va axborotlashtiriladi, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari bazasida ta'lim jarayonining axborot ta'minoti rivojlantiriladi".

Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib ta'lim berish shakllaridan biri mavjud electron o'quv-uslubiy qo'llanmalar va multimediali electron maruza matnlari xisoblanadi. U ta'lim amaliyotiga o'qitishning yangi texnologiyalarini, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning yangi usul va tamoyillarini qo'llashni nazarda tutadi. O'z navbatida ta'limda davlat tilida o'quv dasturlariga asoslangan xolda o'quv qo'llanmalardan foydalanish uchun tizimda faoliyat olib boruvchi kadrlar malakasi juda yuqori bo'lishi zarur, amalda esa kadrlar malakasining pastligi ta'limning bu turidan foydalanishga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, talabaning o'qitish shakllari ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va bo'lajak mutaxassisning kasbiy layoxatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqishga keng imkoniyat yaratadi.

Respublikamizda axborotlashgan jamiyat qurish borasida keng miqyosda isloxotlar amalga oshirilmoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozni respublika iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadiga qaratilgan huquqiy me'yoriy xujatlar:

1. Jaxon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan inqirozga qarshi choralar dasturi
2. "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi
3. "Iqtisodiyotning real sektori korxonalrini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash, ularni eksport saloxiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari.

Bu tasdiqlangan Dastur va qabul qilingan farmonlarga binoan respublikada moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar:

Iqtisodiyot real sektori korxonalaraini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish. Korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jixozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologilarni keng joriy qilish, eksportga maxsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorda raqobatbardosh bo'lishini qo'llab quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini yanada kuchaytirish maqsadida elektron energetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirish.

Jahon bozorida talab pasayib borayotgan sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali respublikadagi ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, bank-moliya tizimini mustaxkamlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, axolini ximoya qilish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Prezidentimiz I.Karimov bozor iqtisodiyotiga o'tish kontseptsiyasini ishlab chiqdilar. Mazkur kontseptsiya iqtisodiy isloxlarni o'z ichiga oladi, isloxlarni asosida esa, I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan 5 tamoyil yotadi.

Atoqli ingliz iqtisodchisi J.M.Keyns siyosiy arbob, iqtisodchilarning g'oyalariga to'xtalib, dunyo ular bilan boshqarilib turiladi deb aytib o'tgan. Xaqiqatdan ham I.Karimovning bozor iqtisodiyotiga o'tish kontseptsiyasi bozor

iqtisodiyotiga o'tishda xal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi, uning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari" asaridagi ko'rsatmalar O'zbekiston uchun inqirozdan chiqishda asosiy ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi.

Jahon moliyaviy inqirozining O'zbekistonga ta'sirining jiddiy bo'lmaganligini quyidagi omillar bilan izoxlash mumkin:

- ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanlanganligi;
- davlat bosh isloxotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini aniq belgilab olinganligi;
- O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun etarli darajada mustaxkam zaxiralar yaratilganligi va zarur resurslar bazasining mavjudligi;
- oqilona tashqi qarz siyosati olib borilganligi;
- axolining ish xaqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligi;
- davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'liq barqaror va ishonchli ekani, ularning ximoya mexanizmlari qanchalik kuchliligi bilan izoxlanadi.

Jahon moliyaviy inqirozining mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'siri qanday?

Bunda Prezidentimizning quyidagi so'zlarini esga olish muximdir: «...tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi. Barchamiz bir xaqiqatni anglab etishimiz lozim O'zbekiston bugun xalqaro xamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Iqtisodiyotimizda moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlari ta'sirini pasaytiradigan omillar:

- mamlakatimiz iqtisodiyotining jaʼon iqtisodiyotiga yuʼori darajada integratsiyalashmaganligi,
- mamlakatimizda katta hajmdagi xorijiy kapitalni ushlab turuvchi kompaniya va moliyaviy institutlarning yoʻgʻligi;
- ustav fondlarining korxonalarning real xususiy aktivlari bilan ta'minlanganligi.

Ta'lim jarayoniga kompyuter texnologiyalarini qo'llash va ulardan o'quv jarayonida foydalanish to'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2002 yil 30 maydagi PF-3080 sonli "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risidagi" farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2002 yil 30 iyundagi 200-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi 2002 yil 12 dekabrda 439-P sonli, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 2003 yil 11 dekabrda 56-I sonli, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi va 562-P sonli, "Elektron xujjat aylanishi to'g'risida"gi 2004 yil 29 aprelda 611-P sonli qonunlarining qabul qilinishi o'z vaqtida qo'yilgan qadam sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari: Ushbu ishning maqsadi uslubiy qo'llanma yaratish usullari, texnologiyalari va uning imkoniyatlari, hamda dasturning foydalanilgan dasturiy muhitlari va dastur kodlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari dasturchi va foydalanuvchiga qo'llanma, hamda test dasturini tuzishda foydalanilgan dasturlar to'g'risida kerakli ma'lumotlar shular jumlasidandir.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va uslubiy asoslari: Ushbu bitiruv malakaviy ish (BMI) da ta'lim tizimiga axborot texnologiyalaridan foydalanish, yani axborot texnologiyalarini soxalarga tadbiiq qo'llashning nazariy va uslubiy

asoslari va davlat tilida yaratilganligi va ahamiyati to'g'risida masalalar ko'rib chiqilgan. BMI o'z ichiga axborot texnologiyalarining imkoniyatlari, qo'llanmani yaratish dasturiy muhiti, undan foydalanish, hamda o'z-o'zini fan bo'yicha olgan bilimini tekshirib ko'rish uchun TEST nazorat savollari ham keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi: BMI ning yangiligi zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanib uslubiy qo'llanma yaratish dasturini ishlab chiqilganligi va foydalanuvchi uchun o'ng'ayligi va fan bo'yicha o'zlashtirish darajasini nazorat qilish bilan boshqa dasturlardan farqlanganligi. Bu ishda axborot texnologiyalari fanidan davlat tili (lotin alifbosi) da o'quv-uslubiy qo'llanma yaratilishi, zamonaviy dasturlash muhitlaridan foydalanganligi, ikkinchidan o'z ichiga axborot texnologiyalari to'g'risida o'tiladigan boshlangich ma'lumotlar va o'rganmoqchi, foydalanuvchi bo'lgan talabarga 17 ta mavzuda kerakli ma'lumotlarni mavjudligi. Bu masalani xal qilishda mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma dars rejalari asos sifatida olindi va ularning taxliliy natijalari ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi uchta bobdan iborat: Kirish, uchta bob, texnika xavsizligi, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Birinchi bobda axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbqiq qilish, axborotning o'rni va ahamiyati, axborot tizimi texnikaviy ta'minotining mohiyati va bajaradigan vazifalari, axborotli texnologiyaning yaratish tamoyillari, qo'yilishi va texnologik soxaning ta'rifi va uni hozirgi kunda respublikamizda o'quv jarayoniga tadbqiq qilish ishlari ustida qisman ishlar amalga oshirilgan.

Ikkinchi bobda masalaning qo'yilishi, bitiruv malakaviy ishi bajarilishidan maqsad va axborot texnologiyalari fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma yaratilish masalalari ko'rilgan.

Uchinchi bobda uslubiy qo'llanma yaratishda foydalanilgan dasturiy tillar HTML, Java Script, Microsoft Office Front Page va boshqa tillardan foydalangan va test tuzish texnologiyasi va dasturchiga yordam to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

To'rtinchi bobda foydalanuvchiga kompyuterda ishlash jarayonida texnika xavfsizligi va elektr tokidan foydalanish bo'yicha kerakli tavsiyalar keltirilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma 17 ta mavzudan tashkil topgan bo'lib, axborot kommunikasiya texnologiyalarini o'rganuvchi bo'lganlarga moslab yozilgan. Bundan tashqari kompyuterda ishlash jarayonida ko'zga zarar bo'lish oqibatlarini oldini olishda kerakli tavsiyalar berilgan va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, hamda dastur kodlari keltirilgan .

1. Axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiri

1.1. Elektron darsliklar yaratish texnologiyasi

Elektron o'quv qo'llanma arxitekturasi kompyuterlashtirilgan axborot texnologiyalarini egallash xarakatidir. Poligrafik nashrlarni nusxalashda, yozilgan CD-ROM lar yoki Internet birgalikdagi zarbasiga uchradi. Bu albatta otsiz sakrashga o'xshaydi chunki xech qanday qog'ozbozliksiz elektron yo'llar orqali nashr qilish yoki ko'paytirish imkoniyati bor.

Taqdim etilgan ma'lumotlar yangi shaklda, elektron o'quv-uslubiy qo'llanmada tasvirlanadi. Elektron o'quv qo'llanmaning birinchi shakli matn ko'rinishida ishlab chiqildi xozirda esa uning ko'rinishi murakkab xolga etib keldi. Elektron o'quv qo'llanmaga xozirda matn, ovoz, musiqa, video va boshqa internet tarmog'i imkoniyatlari qo'shib borilmoqda. U televizion va radio uzatish imkoniyatiga ega. Multimedia o'quvchi o'qituvchilarning ekran dizayniga bo'lgan munosabatini kamaytirdi. Tan olish kerak ma'lumotlar foydalanuvchilarga yangi imkoniyatlar bilan berilmoqda. Shu bilan bir qatorda har xil ko'rinishdagi muammolar, bog'liqliklar, masalan, foydalanish manbalari etishmaydigan, maxsus bilimlarni pulga olishlaridir. Bu muammoning echimini takrorlanmas, eng zamonaviy elektron o'quv uslubiy qo'llanmalar yaratildi va Internetga yani Universitet saytiga joylashtirildi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyoti strategiyasi yo'nalishni ma'lumotdan bilimga belgilaydi. Kompyuter dasturlari bilimlarni tashish vazifasini bajaradi degan fikr, faqat ma'lumot yoki uning shakli, belgilangan butunlik ta'minlanadi. Darxaqiqat birinchi elektron o'quv qo'llanmada algoritmlash amalga oshirilib, muallif butun o'qitishni shakllantirishga erishdi. Bu elektron o'quv uslubiy qo'llanma evolyutsiyasiga multimedianting taraqqiyoti sabab bo'ldi. Ammo aynan u foydalanuvchilar axborot resurslarining kelajagini belgilaydi. Eng yaxshi elektron o'quv qo'llanmalarda chuqur ma'no, yana metodik va pand – nasixat darajasi strategiya va algoritmiga ega.

Elektron o'quv qo'llanma ma'lumotlar fazosining elementi xisoblanadi. U foydalanuvchilar manbalari, boshqa elektron o'quv qo'llanma, insoniyat yaralishi, davlat, nashriy va etkazib beruvchilarning madaniyatini belgilab beradi. Shuni tan olish keraki, o'qituvchi, o'quvchi, ota-onalar, sinfdosh yuzasidan insoniyat yaralishi maktab ta'limi uchun ma'lumot echimini bajaradi. O'rta maktab darajasida yuqori obro'yli shaxs vazifasini o'qituvchi bajarishini tan olish kerak. Qanday zamonaviy elektron o'quv qo'llanma bo'lmasin, agar u, ota-onalar yig'ilishida o'qituvchi tomonidan tavsiya etilmasa, o'quvchiga bu o'quv qo'llanmadan xech qanday qo'shimcha imkoniyatlar etib bormaydi. Kamchiligi, o'qituvchi o'quvchini, ota-onalar va o'quvchilarning o'zlari xam savdo tarmoqlari yoki INTERNETga kirib qolishlariga sababchi bo'lishlari mumkin. Bugungi kunda jiddiy nashriyotlar chetlatilib, elektron o'quv qo'llanmaga qaratilgan lekin sotilishi mumkin bo'lgan, o'qitishga mo'ljallangan ma'lumotlardan tashkil topgan bo'lishi kerak. Yagona mo'ljal narx va tijoriy reklama, do'st va tanishlar maslaxatlaridan iborat. O'qituvchi biladiki elektron o'quv qo'llanma kichik uy kompyuterlariga xam mos bo'lib u tarmoqsiz ishlashi xam mumkinligini xisobga olib o'quvchilarga mustaqil o'qishlarni uyga berishi xam mumkin bo'ldi.

Asosiy shakllar. Elektron o'quv qo'llanma yaratish muallifning talanti va ustaligiga bog'liq bo'lib, har qanday murakkab tizimlarni yaratish imkoniyatini beradi. U albatta yaxshi jixozlangan va elementlari tartibli joylashgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari uslubiy qo'llanma tushunarli va davlat tilida yozilganligi, hamda foydalanuvchini charchatmasligi va zeriktirmasligi kerak.

Test. Tashqaridan qaraganda u oddiy elektron o'quv qo'llanmaga o'xshaydi. Asosiy qiyinchilikni savollarni yig'ish va shakllantirish, savollarga javoblarni moslashtirish tashkil etadi. Yaxshi testdan bilim ob'ektiv kartinasini, fikrlash va fan, belgilangan predmet soxasini egallashda foydalaniladi. Xuddi to'g'ri qo'yilgan tashxis salomatlikning birinchi qadami

sanalganidek, ob'ektiv testdan o'tkazish bilim cho'qqisiga erishishning optimal yo'lini belgilaydi.

Entsiklopediya. Bu elektron o'quv qo'llanmaning ombor ko'rinishidir. Tuzilish satxida ensiklopediya atamasi ma'lumot, elektron o'quv qo'llanmada markazlashtirilishi tushunchasini beradi.

Elektron nashr – bu grafik, matn, raqamli, musiqali, video, foto va boshqa axborotlarni va yana foydalanuvchilar uchun bosma xujjatlar yig'indisi hisoblanadi. Elektron nashrdan elektron tashuvchilar - magnitli (magnit tasma, magnit disk), optik (CD-ROM, DVD, CD-R) va yana kompyuter tarmoqlaridan foydanish mumkin.

Elektron o'quv nashr - ilmiy malakaviy bilimlar maydonida tizimlashtirilgan materiallarda tashkil topgan bo'lib, bu maydonda o'quvchi, talabalarning bilimlarini faol ravishda o'stirib borish ta'minlanadi. Elektron o'quv qo'llanma yuqori darajada foydalanish va badiiy ko'rgazmaga mo'ljallangan bo'lib, to'liq axborot, metodik ko'rsatmalar sifati, texnik foydalanish sifati, aniqlik, mantiqiylikka ega.

O'quv qo'llanma – o'quv nashri, o'quv tartiblari tizimi yoki uning bo'limi, qismi hisoblanadi.

Elektron o'quv qo'llanma - asosiy elektron o'quv qo'llanma yuqori metodik va ilmiy darajada yaratiladi. U elektron ko'rinishda bo'lib, bunda ilmiy teznika rivoji va yuqori sifat mavjud.

Gipermatn - bu matn elektron shaklda va belgilangan tizimlar aloqasining ko'rinishi. U daraxt ko'rinishida bo'ladi.

Kompyuterlashtirilgan tushuntirish - tushuntirish turi, aniqlik va ravshanlikdan foydalanish, savollarga induktiv aqllilik va shakllantirilgan tushunchalar yo'li bilan “xa” yoki “yo'q” tipidagi javoblardir.

Kompyuterlashtirilgan echim - echim metodi, oddiy va yagona yo'l bilan bajariladi, kompyutersiz qabul qilib bo'lmaydi va shuning bilan yuqori tezlik va xisoblash talab qilinadi.

Vizuallik - rasm, garfik, matn va xarakatlarning aniq shaklidagi ko'rinishi.

Elektron o'quv qo'llanmaga ta'rif. Hozigi kunda zamonaviy ta'lim taraqqiyoti shunday imkoniyatlarga yaratilgan kompyuter paketlaridan tashkil topishi mumkin, uyda shaxsiy kompyuterlarda, mustaqil ishlash uchun jixozlangan oliygohlarda, kompyuter sinflarida, yotoqxonalarda, maxsuslashtirilgan malakaviy auditoriyalarda foydalanishimiz mumkin.

Elektron o'quv qo'llanmani zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanib dasturini yaratish masalalari o'rganilgan.

1.2. Elektron o'quv qo'llanma - o'quv adabiyotga qo'yilgan talablar

Elektron o'quv qo'llanma (xatto eng zo'r) kitob shakliga almashtirish shart xam, kerak xam emas. Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma, yani adabiyotining bu janri mutloqo yangidir. Kitobni xuddi film tomosha qilgandek tushunish mumkin (bunda dastur xam, foydalanuvchiga qo'llanma xam). Bu janrni yangilash ham oson, ham qulay bo'lib, qidirish tizimiga ega. U o'zida boy ma'lumotlar ega bo'lib, u Opera dasturida yoki Internet Explorer dasturida ochib ko'rish imkoniga ega va unda kartinka, ma'lumotnomalar, matnlar, algoritmi, blok-sxemalari joy olgan.

Elektron o'quv qo'llanma maksimal darajada tushunish va tushuntirilishga ega bo'lishi, inson miyasi, ongiga nafaqat eshitish balki ko'rish orqali etib borishi, kompyuter tushuntirishidan foydalanish kerak. Tashkil qiluvchi matnlar xajmi va grafiklar chegaralangan bo'lishi kerak.

Elektron o'quv qo'llanmada axborot texnologiyalari soxasida ishlatiladigan modul proseduralari, funksiyalar va axborot texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Ko'rgazmalilik-o'qitish. Ko'rgazmalilik tushunchasi. Uning turlari va funktsiyalari Ya.Kamenskiy VII asrdayoq ko'rgazmolilikni shunday ta'riflaydi: xar bir narsani xissiyotlar bilan anglash, o'rganilayotgan ob'etni xis-tuyg'ular orqali anglash, maket va modellarni o'quvchilar orqali kuzatish, o'qitish ko'rgazmaliligini avval aniq ob'ektni anglash deb tushunilgan, masalan: real

predmet va xodisalar o'z boshlang'ich ko'rinishida mashinalar modellari, ko'rgazmali (tarqatma material, jadvallar, va ayrim chizmalı dasturlar, o'quv kinofilmlar. Zamonaviy didaktika shuni ta'kidlaydiki, ko'rgazmalilik tushunchasi bu nafaqat aniq vizual predmetlarga tayanish, balki modellarga xam model - bu nima? Odatdagi ko'rgazmalilikdan farqi nimada?

Model - bu ob'ekt yoki ob'ektlar turlarining shartli ko'rinishi. O'rganilayotgan ob'ektning tashqi ko'rinishi xaqida tasavvur xosil qiluvchi natural predmetlar anglatadi. Model esa faqat xodisa va jarayonning ayrim, zarur bo'lgan tomonlarini ko'rsatadi. Bu tomonlar to'g'ri aks ettirilishi zarur, o'rganilayotgan xodisa uchun izomorf.

O'rganish vositari ko'rgazmali bo'lishi uchun xodisa modelga aylantirilishi kerak, uning asosiy xossalarini ko'rsatish (ya'ni model o'rganilayotgan xodisaga izomorf bo'lishi kerak), modelning tushunarligini ta'minlaydi. Izomorflik va oddiylik bu ko'rgazmalilikning farqli tomonlari, o'quv modellarining teoriya tushunchalari shakllanishidagi o'rni Davo'do orqali ilmiy fikrlash asosi deb topildi. O'quv modellarini u ko'rgazmalilik va tushuncha uyg'unligi deb ta'riflaydi. Modellashni Davo'dov ko'rgazmalilikni to'ldiruvchi didaktik printsip deydi.

Elektron dasturning maqsadi – o'quv materialini hamma yutuqlarini saqlab qolish emas, balki kompyuter orqali tasvir uchun ko'rgazmalarni tanlash. Tasviriy material turi va soni qaysi tartibda tanlanadi.

Bizningcha, o'quv matni tushunilishi qiyin joyida tasvir kiritiladi (blok-sxemasi), qo'shimcha ko'rgazmali tasvir orqali mavzuviy-mazmuniy bloklarining uyg'unlashishi va tartiblashishi uchun. Kompyuter texnologiya elektron dasturga hamma axborotni sig'dirish maqsadi qo'yilmaydi. Bu o'quvchini matn parchasini o'rganishdan chalg'itadi. Shuning uchun alogitmi, blok-sxemasi murakkab bo'lganlariga keltirilgan.

Talabaga beg'iyos ozodlik berish xavfli. Rasmdan lug'atga, boshqa gipermatnga ko'chish maqsadga muvofiq emas. Lekin, uni ozodlikdan maxrum etish xam kerak emas. Ongli kelishuv zarur o'qitish usulidagi bir chiziqlik yoki modullik yaratilishi kerak.

Gipermatnda xarakatli rasmlar ko'pligi, dinamikasi bir chiziqlik bilim olishni susaytiradi, bu animatsiya to'liq bilim olishga xalaqit beradi.

Bir mavzuda nechta tasvir bo'lishi kerak?

Bu nazariy o'quv dasturining mazmuni va xarakteriga bog'lik.

Ko'rgazmalarga boy betlar yoki elektron matnlar keraklimi?

Bir marta tasvir ko'rib, ko'p marta elektron matnni o'qigandan yaxshiroq.

Misol uchun siz yumuq ko'z bilan notanish xonaga kirib, yoningizdagidan xonani tasvirlashni so'raysiz, unga 3-5 sekund ichida ko'rgani ma'qul. Xonani tasvir vositasi orqali qanday tasavvur etsa bo'ladi? Tasvir soni va beti aniq belgilanmaydi, quyidagi faktorlari asoslanadi:

O'quv matnini mazmuni va xarakteriga ko'ra;

O'quv uslubiga ko'ra;

O'quv muassasasiga ko'ra.

Ko'rgazmali vositalar asosida o'qitish tasnifi. Mazmun va xakteri bo'yicha tasnif 3 guruxga bo'linadi:

1. *Tasvirli ko'rgazmalilikka:*

- rasmlar reproduksiyasi;
- arxitektura va xaykataroshlik fotoreproduksiyasi;
- o'quv matnlar uchun yaratilgan o'quv rasmlar;
- rasm va applikatsiyalar;
- vidoeparchalar;
- audioparchalar;
- videofilmlar kiradi.

2. *Shartli-chizmali ko'rgazmalilikka:*

- jadvallar;
- sxemalar;
- blok-sxemalar;
- diagrammalar;
- grafiklar;
- xaritalar;

- planshetlar kiradi.

3. *Predmetli ko'rsatmalilikka:*

- muzey eksponatlari;

- maketlar;

modellar.

Axborotni ko'z oldiga keltirish deb anglash jarayoniga yoki ko'z, yoki quloq, yoki baravariga ikkalasi yoki xissiyotlarni ulashdir. O'quv dasturini anglash uning ko'z oldiga keltirishdan boshlanadi. Shuning uchun barcha sezgi organlari ishga tushadi, shu tufayli tez va oson o'quv matnini o'zlashtiriladi. Tasviriy material bo'lishi kam, u tushunarli va o'zaro bog'langan, aktual bo'lishi kerak. Bunda tasvir vositalaridan foydalanadi.

Yaxshi jixozlangan o'quv matni umumiy xolatga ijobiy ta'sir etadi. Ranga qiziqish oshadi. Diqqat va faoliyat uyg'unlashadi, kuzatuvchanlik va sezgirlik oshadi, xotira tayerlanadi, fikrlash jarayoni engillashadi, o'quv materiali o'zlashtiriladi.

Animatsiya. Elektron darslik bosma o'quv materialini barcha tomonlarini saqlash va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga imkon beradi. Dinamik tasvirga statik tasvirni ko'z oldiga keltirish. Animatsiya bu xarakat samarasini joriy etish jarayonidir.

Animatsiya tezlikda uzatishni taminlaydi va bular:

matn axborotini qismlab beradi;

tasvir qismlarini so'zsiz xarakatiing jarayoni;

rasm xarakati (so'zsiz);

tarixiy janglar so'zsiz xarakatini;

fizik va kimyoviy jarayonlar;

texnologik jarayonlar texnik konstruktsiyalash;

tabiiy xodisalar jarayoni;

siyosiy xodisalar jarayoni;

sotsial xodisalar jarayoni;

Animatsiya - ob'ektlar xarakati va ayrim xollarda so'zsiz xarakatlarni cheksiz va amaliy sharoitlar yaratadi.

Animatsiya usullari. Tasviriy ko'rgazmalilikni joriy etish uchun turli usullar ishlatiladi. Uslubiy tomonidan olsak, tasvir eskizini jixozlash va yaratishga oid usullarda to'xtalamiz. Animatsiya samarasini qo'llashda bir necha usullar bor.

Ustma-ustlik usuli. Statik tasvirni tanlab, muallif uni bir tarkibiy qismga bo'ladi va ularni bir - biriga ustma-ust kelish tarkibini belgilaydi. Dinamik tasvir samarasi joriy etiladi. Bu ob'ekt xarakatlanmaydi, lekin yashaydi. Bunday tasvir yillik va obrazli tarzda qandaydir qatorni yoki xodisa ketma-ketligini ta'riflash uchun ishlatiladi. Nazariy materialni qismlab joriy etish usuli sekinlik bilan jadval tuzishda ishlatiladi. Umumlashtirish va o'quv materialni tizimlashda yordam beradi.

«*Kama*» usuli. Matn bilan to'ldirilgan jadval oldini yopiq, keyin sekinlik bilan ochiladi. Jadval uzra qora qog'oz xarakati tasavvuri paydo bo'ladi, jadvalni qismlarini sekin-osta ochib beradi.

3 . «*Kenglikdagi xarakat*» usuli.

Ustma-ustlik usulidan farqi shundaki, qadamlar ketma-ketligini ta'riflaydi, tasvir uchun tanlangan ob'ekt ekran kenligida xarakatlanadi. Ko'z oldi qatorini asosini rasmlar tashkil etadi, rasm reproduksiya o'quv rasmlari va videoqismlar. Animatsiya va ranglilik yaxshi ta'sir beradi. O'quvchi diqqatini jamlovchi rangli ekran kuzatish diapazonini chegaralaydi. Kadrlar o'zaro bog'liq, ketma-ketlikda beriladi, mustaqil va avtonom. Ayrim kadrlar imzosi yo'q, ularni ulash va qo'shish imkoniyati bor, har xil tarzda beriladi, bir tasvir orqali turli uslub qo'llanadi. Qismlarni tanlash imkoniyati nazariy o'quv materialni tanlash imkoniyati nazariy o'quv materialni tushuntirishda qulay. Masalan, 3 rasimli kadr berildi, bir abzats mazmunini tasvirlovchi. Bu abzatsni o'qishda ketma-ket 3 rasimli kadr chiqariladi.

O'quv materialni o'rganish jarayonida tasvir sifatida animatsiya kadrlardan muammoli savollar uzatib, solishtirish jad-vallari tuziladi. Tasvirlar sharxlar bilan kuzatiladi.

Elektron o'quv qo'llanmani qayta ishlash metodik ko'rsatgichi.

Birinchi qadamda elektron o'quv qo'llanmani qayta ishlash uchun nashriyot yoki elektron nashriyot tanlash kerak.

to'la standartlangan dasturga mos keladi;

gipertekstlarni yaratishi qulay;

masala va misollari ko'p;

blok-sxema asosida;

qulay formatli.

Ikkinchi qadam: nashriyot bilan kelishuvni tasdiqlash.(unga narxi va sifati xam kiradi).

Uchinchi qadam: kirish xaqida. Ya'ni materiallar necha bo'limdan nima xaqida ekanligi to'g'risida va iqtisodiy kris to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

To'rtinchi qadam: mavzularni bo'limlarga moslab qo'yiladi. Modulyatsiya va gipertekst o'rtasidagi aloqani aniqlash.

Beshinchi qadam: gipertekst elektron forma ko'rinishda keladi.

Oltinchi qadam: talabalarga va o'qituvchilarga kerakli bo'lgan, elektron o'quv qo'llanmasi yaratiladi. Endi elektron o'quv qo'llanmasi multimediya yordamida keyingi mukammallikga tayyor bq'ladi.

Etтинchi qadam: tekst multimediya ma'lumotlari bilan almashadi.

Elektron o'quv qo'llanmani ishlatishga tayyorlash.

Shu qadamlarning ishlashiga quyidagi mundarijalar kiradi:

- testlash;
- ko'rsatmani ekspluatatsiya bo'yicha yozish;
- metodik ta'minlashni qayta ishlash;
- ma'lumotni registratsiyaga tayyorlash;

Elektron o'quv qo'llanmasini ximoyalash va tarqatish va Internetda joylashuvi.

1.3. Elektron o'quv qo'llanmani uslubiy ta'minlash

Elektron o'quv qo'llanmani uslubiy ta'minlashda agar elektron o'quv qo'llanmani yaratishda metodik ma'lumotlarni qayta ishlash kuzatilmasa, EO'Q qo'llanma sifatiday ishlatilmaydi. Zamonaviy o'quv ma'lumotlarni yangilashtirish uchun hammaga bir xil dostup (ruxsat) bo'lishi kerak. Hozirgi kunda professor-o'qituvchilar yangi texnologiyalarni o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini qo'llashni va talabalarni bilim saviyasini oshirishga tinmay mehnat qilmoqdalar. Chunki bu yangi texnologiya yaratilishi bilan o'quv dasturlarni, ma'ruzalarni, amaliy ishlarni va laboratoriya ishlarini o'zgartirilishi kerak.

Uslubiy ta'minlashning ahamiyati. Agar bu metodikani qo'llasak hamma xonalarda, auditoriyalarda, yotoqxonada va Internetda ochiq bo'lishi kerak. Kompyuter orqali ta'lim olish uchun nafaqat hammada kompyuter bo'lishi, kompyuter yaxshi ishlashiga va Internet tarmog'iga ulangan bo'lishi shart. Shu qo'llanmani ishlatish davomida faqat kompyuterdan ishlamaslik kerak, uy vazifalarni (masalan: matematika fanidan misol, masalalarni echishni) qo'lda echish kerak, chunki tayyor dasturlar kompyuterda bor. Kompyuter talabani yalqovlikka olib keladi. Lekin kompyuter bilan ishlash xam oson xam vaqt kam oladi.

2. Masalaning qo'yilishi

2.1.1. Bitiruv malakaviy ishi bajarilishidan maqsad

Ta'lim texnologiyasi tizim sifatida qaralsa, uning tuzilmasini tashkiliy funktsional elementlar bo'yicha tasavvur etish mumkin: Ta'lim texnologiyasining tashkiliy elementlari-taxsil beruvchi, taxsil oluvchi, maqsad, natija, axborotlar mazmuni, metodlar vositalar, usullar va o'qitishning tashkiliy shakllari, nazorat qilish, tashxislash, axborotlar olish usul va vositalaridan iborat.

Pedagogik jarayon o'quv maqsadini qo'yish bilan boshlanadi. Maqsad shunday aniq bo'lishi lozimki, u vositasida ta'lim-tarbiya jarayonini qanday darajada amalga oshirilganligini aniqlash, berilgan vaqtda ko'zlangan maksadga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayonni qurish imkonini bersin. Masalaning qo'yilishi xozirgi kunda ta'lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va yaratilayotgan o'quv-uslubiy ta'minotning zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanib dasturiy ta'minotini yaratishdir. Masalaning qo'yilishidan asosiy maqsad, xozirgi kunda davlat tilida o'quv adabiyotlarining etishmasligi va tayyor dasturiy vositalardan foydalanib elektron o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish va uni keng ommaga, ya'ni talabalarga tarmoq yoki Internet orqali ta'minlash masalalarini xal qilishdan iborat.

Ta'lim texnologiyasining maqsadi o'rganilayotgan o'quv predmetining maqsadlaridan va mazmunidan, tarbiyaviy ta'siridan kelib chiqqan xolda aniqlanadi, xamda ta'lim maqsadiga mansub bo'ladi.

Ishning mazmuni, yangi o'quv materiali quydagilarda o'z aksini topadi: Qurilayotgan fanni o'qitish, mazmunni o'zida aks ettirgan ta'lim texnologiyalari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarining matni, axborot manbalari.

O'qitish metodlari, vositalari, usullari va tashkil etish shakllari, ya'ni taxsil oluvchiga pedagogik ta'sir etish texnikasi va qurollari, axborot mazmuni va didaktik maqsadlarga uyg'un xolda tanlab olinadi va amaliyotga tadbiiq etiladi. Shuningdek, bunga taxsil oluvchilarning yosh, fiziologik xususiyatlari, ta'lim muassasalarining moddiy jixozlanishi, ijtimoiy muxit xam xisobga olinadi.

Agar qo'yilgan maqsad bilan olingan natija bir-biriga mos kelsa, pedagogik jarayon tugaydi. Bunda qo'yilgan maqsad bilan olingan natijaning to'liq mosligini ta'minlanishni ko'rsatib o'tish zarur, chunki ular predmetning ob'ektiv muxim qonunlaridan kelib chiqadi.

Shuni takidlash joizki, ko'rsatilgan pedagogik tuzilmaning biror elementi ushbu ishda mavjud bo'lmasa, unda pedagogik jarayonning o'zi kechmaydi yoki ko'zlangan natijani to'liq bera olmaydi. Har qanday xolda xam bunday pedagogik jarayondan ijobiy natija olish tasodifiy xarakterga ega bo'ladi.

Ta'lim texnologiyasi xaqida gap ketganda daxldor quydagi xodisalarni bir-biridan farqlashga extiyoj tug'iladi:

- 1- ta'lim didaktik loyixalash;
- 2- loyixani amalga oshirish;
- 3- ta'limning joriy va oraliq natijasiga ko'ra didaktik loyixasiga tuzatish, o'zgartirishlar kiritish (uslubiy qo'llanmaga);
- 4- ta'limni takrorlash ;
- 5- yakuniy nazorat (test dasturi).

Bu xodisalarni 1 va 2-si an'anaviy ta'lim tajribasida xam uchraydi. Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon darajasida bo'lishi doimo o'qituvchi xamda o'quvchining diqqat markazida turadi:

- o'qituvchi ta'lim natijasini tez-tez tekshirib bolalarni o'zlari erishgan yutuqlaridan ogox qilib turadi;
- o'quvchilar esa o'z yutuq va kamchiliklarini anglab, birinchisini yana ko'paytirishga, ikkinchisini bartaraf etishga intiladi.

Bitiruv malakaviy ishining bajarilishidan maqsad aniq fanlardan adabiyotlarning va electron uslubiy qo'llanmalarning etarli darajada va bundan tashqari davlat tilida yozilgan o'quv adabiyotlarining etishmasligidir. Shuning uchun ushbu bitiruv malakaviy ishining mavzusi dolzarb deb xisoblayman. Bitiruv malakaviy ishi axborot texnologiyalari va soxada ishlamoqchi va foydalanmoqchi bo'lgan talabalarga va o'qituvchilarga mo'ljallangan.

3. Elektron uslubiy qo'llanma yaratishda dasturiy vositalarni

3.1. Elektron qo'llanma dasturining umumiy tavsifi

Ushbu elektron uslubiy qo'llanmani yaratishda zamonaviy dasturiy vositalari (muhitini) dan foydalanib yaratish, ularning imkoniyatlaridan foydalanish va dasturiy vositalarning universalligi, soddaligi va tarmoqda ishlay oladigan tomonlari o'rganilgan. Ushbu elektron uslubiy qo'llanmani yaratishda HTML, Java Script, MF Flash tillaridan foydalanilgan.

Bu Java Script tili gif animator, Web saxifa yaratadigan dasturdir. U o'z ichiga proseduralar va funksiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu dastur yordamida har xil animatsiya ko'rinishdagi masalarni va ishlanmalarni yaratishimiz mumkin. Explorerda ishlashi uchun uni Windowsning dastur tavsiyanomasidan yoki bevosita ish stolidan kompyuterga yuklaniladi. Microsoft Internet Explorer tavsiyanomasi yordamida yoki Opera browseri yordamida, xususan:

- Elektron pochta(EP) ni jo'natish (PerexodG'Pochta buyrug'i bajarilishi lozim);
- Web saxifani bosmaga chiqarish (bunda FaylG'Pechat buyrug'i bajarilishi lozim);
- Shrift yoki tilni o'gartirish (VidG'Shrift buyrug'i yordamida) va boshqa amallar bajarilishi mumkin.

Microsoft Internet Explorer darchasi bilan yoki Opera browseri ishlash uchun tanlanadi va odatdagidek amallarini bajaradi.

Microsoft Internet Explorer dasturi quyidagi komanda (buyruq)larga ega:

Vid - asboblarni panelini tasvirga oladi

Stroka sostoyaniya - xolat satrini akslantirish. Boshlovchi ilovasini akslantirish.

Shrifto - shriftlarni ro'yxatdan tanlash.

Ostanovit - joriy saxifada joylashganni yangilash.

Obnovit - HTMLni asl ko'rinishini berish.

Vo ves ekran - sharqlovchi parametrini o'zgartirish.

Provodnik - Windowsdagi bandlardan tashkil topgan va uning ish saxifasi

yordamida ma'lumot qidirish mumkin.

Spravka - bu band yordamida turli yordam beruvchi ma'lumotlarni olish, shu jumladan Web bo'yicha darsliklar bilan xam tanishish mumkin.

Perexod – o'tish tavsiyanomasi orqali oldinga (Vperyod), orqaga (Nazad), bir pog'ona yuqoriga (Na odin uroven vverx), saxifa boshiga (Domashnyaya stranitsa) va kanallar bo'yicha yurishni (Putevoditel po kanalam), Webda qidiruv (Poisk v Web), Internet da elektron pochta bilan ishlash (Pochta), telekonferentsiyaning o'qish buyrug'ini boshlash (Telekonferentsii) va mening kompyuterim (Moy kompyuter)ga o'tish amallarini bajarish mumkin.

Izbrannoe - tanlangan bo'limi.

Dobavit v «Izbrannoe» - tanlashga qo'shish.

Uporyadochit «Izbrannoe» - tanlashni tartiblash (papkasini ochish).

Upravlenie podpiskoy - obuna bo'lish joriy xolatini ko'rish.

Obnovit vsyu podpisku - telekonferentsiya obuna ro'yxatini yangilash.

Alghoritm On-line - axborot agentligi yangiliklarini tezkor kompyuter va telekommunikatsion dasturlarga oid ma'lumotlarni olish.

News from Russia - ommaviy gazetalar materiallari bilan tanishish.

Rocitt - turli statistika, faktlar, yangiliklar.

Weekend Channel - musiqa, kino, dam olish, o'yinlar kitoblar, e'lonlar.

Russia on-line news - dunyo bo'yicha yangi ma'lumotlar taxta o'yinlari va on-line chat orqali har kuni turli o'yinlar o'tkaziladi. Siz xam qatnashib ko'ring.

Yuqorida o'quv qo'llanma, maxsus dasturlar-skriptlar – Xara 3D, CQQ va Java Script tillari yordamida yaratilishini ko'rgan edik. Bu dasturlar yordamida o'quv qo'llanmani maxsus kodlar yordamida formatlash, tasvirlarni ifodalash, multimediadan foydalanishni boshqa dasturlash tillariga o'xshash tarzda amalga oshiriladi. Bu dasturlash tillaridan foydalanish ko'p xollarda foydalanuvchi uchun bir qator qiyinchiliklar tug'diradi, ya'ni bunda kodlarni eslab qolish, buyruqlarni to'g'ri ifodalash talab qilinadi.

Hozirgi zamonaviy taxrirllovchi dasturlar yordamida oddiy animatsiyalarni va boshqa kompyuter imkoniyatlarini ifodalagan xolda yaratish imkoniyati mavjud. Har bir o'quv qo'llanma uchun bitta Web-saxifa mavjud bo'lib, u uy yoki bosh saxifa (homepage) deyiladi. Ixtiyoriy murojaat qiluvchi avvalo ushbu saxifa bilan boshlanadi.

Bu saxifadagi har xil tekst, rasm, grafik va xokazo ko'rinishdagi gipermurojaat yordamida o'quv qo'llanmaning boshqa qism saxifalariga murojaat qilish mumkin. Web-saxifadagi ko'rsatilgan gipermurojaat shu kompyuterga yoki ixtiyoriy internetga ulangan kompyuterga bog'langan bo'ladi.

Elektron o'quv qo'llanmalarni yaratishni avtomatlashtiruvchi dastur vositalari ishlab chiqildi. Shulardan Java Script tilidir.

Java Script tilidir bu web-saxifalar bilan ishlovchi dastur bo'lib, uning yordamida Web-saytlar, elektron o'quv qo'llanma yaratishni avtomatlashtirish mumkin.

